

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMiy DARAJASINI BERUVCHI
(PhD).03/28.08.2024.T.181.02 RAQAMLI ILMiy KENGASH**

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

ABDULLAYEV KAMOLIDDIN YUSUPOVICH

**PAXTANI SAQLASH JARAYONIDA SIFAT KO'RSATKICHLARINI
YAXSHILASH UCHUN TOZALAGICH TOSH TUTKICHLI PAXTA
G'ARAMLASH QURILMASINI ISHLAB CHIQISH**

05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Termiz – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Abdullayev Kamoliddin Yusupovich

Пахтани saqlash jarayonida sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash uchun tozalagich tosh tutgichli paxta g‘aramlash qurilmasini ishlab chiqish.....

3

Абдуллаев Камолиддин Юсупович

Разработка устройства складирования хлопка-сырца с очистительно-камнеуловительной секцией для улучшения качественных показателей хлопка при его хранении

23

Abdullayev Kamoliddin Yusupovich

Development of a cotton ginning device with a cleaning stone handle, which ensures that the quality parameters are not disturbed during the storage of cotton.....

39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....

42

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY DARAJASINI BERUVCHI
(PhD).03/28.08.2024.T.181.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

ABDULLAYEV KAMOLIDDIN YUSUPOVICH

**PAXTANI SAQLASH JARAYONIDA SIFAT KO'RSATKICHLARINI
YAXSHILASH UCHUN TOZALAGICH TOSH TUTKICHLI PAXTA
G'ARAMLASH QURILMASINI ISHLAB CHIQISH**

05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Termiz – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD /T4435 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertasiya Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetida huzuridagi Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://tdmau.uz/>) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Djamolov Rustam Kamolidinovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Urosov Mustafokul Kulturayevich
texnika fanlari doktori, dotsent

Abdugaffarov Xusniddin Jurabekovich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertasiya himoyasi Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 03/28.08.2024.T.181.02-raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 27-fevral kuni soat 14-00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190100, Termiz sh., Islom Karimov ko'chasi, 288 A-uy. Tel.: (+99876) 221-87-20; e-mail: <https://tdmau.uz>) (Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti yangi bino).

Dissertasiya bilan Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№1-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190100, Termiz sh., Islom Karimov ko'chasi, 288 A-uy. Tel.: (+99876) 221-87-20

Dissertasiya avtoreferati 2025-yil 13-fevral kuni tarqatildi.

(2025-yil «12» fevraldagi № 136-raqamli reestr bayonnomasi).

F.U.Karshiyev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, dotsent

O.Sh.Ochildiyev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.f.d.

M.K.Urosov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash huzuridagi
ilmiy seminar raisi texnika fanlari doktori, dotsent,

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon to‘qimachilik sanoatida paxta tolasi ishlatilishi bo‘yicha umumiy tola miqdorining 55-60 foizini tashkil etadi. Dunyo statistikasi va paxta bo‘yicha Xalqaro konsultativ qo‘mita (ICAC) ma‘lumotlariga ko‘ra “2020/2021-yil mavsumida paxta tolasini eksportyorlari beshtaligiga AQSh, Braziliya, Xitoy, Bangladesh va Vetnam mamlakatlari yetakchi o‘rinlarni egallamoqda”. Lekin keyingi yillarda paxta tolasini eksport miqdori keskin kamayib, aksariyat paxta yetishtiruvchi davlatlar paxta tolasini o‘zlarida qayta ishlash amaliyotini joriy etishmoqda. Ushbu holat jahon bozorida raqobatni kuchaytirib mahsulot sifatini oshirishni talab etmoqda. Shu jihatdan paxta tozalash korxonalarini zamonaviy samaradorligi yuqori texnika va texnologiyalar bilan jihozlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahon amaliyotida zamonaviy texnika va texnologiyalar tobora keng qo‘llanilishi, ayniqsa paxta xom ashyosini yig‘ishtirish vaqtida, uning ifloslangan qismini katta hajmlarda qayta ishlash uchun texnologik mashina va mexanizmlarning yangi avlodini yaratish, tozalash samaradorligini keskin oshirilishini ta‘minlaydigan, ularning asosiy ishchi organlarining parametrlarini, yuklanganligini, ish rejimlarini hisoblashning ilmiy asoslarini yaratish bo‘yicha kompleks nazariy-tajribaviy ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu sohada, jumladan innovatsion texnologiyalar asosida paxta xomashyosini g‘aramlar va omborlarda saqlashdan oldin ularning sifatini va paxtani qabul qilish-uzatish qurilmalarning ishonchliligini oshirish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Bu borada, g‘aramlashdan oldin, paxta xom ashyosidan begona iflos aralashmalarining bir qismini ajratib olish, uning namligini kamaytirish va qabul qilish qurilmasini qo‘shimcha tozalash uskunalari bilan jihozlash paxta tarkibidagi qattiq jism va iflos aralashmalardan tozalashning ishonchliligini oshirish bo‘yicha nazariy va amaliy ishlanmalarini ishlab chiqishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda paxta sanoatini rivojlantirish, paxta tozalash korxonalarini qayta jihozlash va modernizatsiya qilish, paxta xomashyosini ishlab chiqarish va qayta ishlash rentabelligini oshirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 sonli Farmoni, jumladan “... milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yangi ichki mahsulotda sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish maqsad qilinib, bunda to‘qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 barobarga ko‘paytirish...”¹ vazifasi belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan paxta xomashyosini g‘aramlashda qisman tozalash bilan tola sifat

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni.

ko'rsatkichlarini saqlab qolish uchun qabul qilish uzatish qurilmasini resurslarni tejoychi ilmiy-texnikaviy yechimlar orqali takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-iyuldagi PQ308-son "Paxta hosildorligini oshirish, paxta yetishtirishda ilm va innovatsiyalarni joriy qilishning qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-fevraldagi 253-son "Paxta, to'kimachilik klasterlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. "Energetika, energiya va resurstejamkorlik" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Hozirgi vaqtdagi ilmiy tadqiqotlar tahlili natijasi shuni ko'rsatdiki, paxta xomashyosini g'aramlashga tayyorlashda asosan g'aramni buzib, ishlab chiqarishga uzatish jarayonlarini o'rganish bo'yicha ilmiy ishlar olib borilgan va ushbu ishlar quyidagi xorij olimlarning ilmiy ishlarida aks ettirilgan: Sh.Barampuram, G.Allen, S.Krasnyanski, S.Sharma, V.Mor, S.Sanogo, M.Sacande, P.Van Damme, Jyoti Jhavar va boshqalar.

Paxta xomashyosini qabul qilish jarayonida zarur bo'lgan uzellardan biri, konteynerlarsiz tashilgan paxta xomashyosini qabul qilish va paxtani g'aramlarga joylash yoki tayyorlov punktlarining omborlariga joylaydigan, avtotransport vositalariga yuklash uchun mo'ljallangan mobil qabul qilish-uzatish uskunalarning samaradorligini oshirish, g'aramlash qurilmalarini g'aramlashdan oldin tozalash uskunalari bilan jihozlash bo'yicha muammolarni respublikamiz olimlaridan, G.A.Tixomirov, Sh.Alakbarov, S.Musayev, A.N.Nuraliyev, V.A.Veber, A.D.Sapon, Y.Raximov, X.Ayubdjонов, L.F.Troshin, N.Karimov, R.Murodov, X.Axmedxo'jayev, P.N.Borodin, R.K.Djamolov, T.N.Korobelnikova va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan.

Paxtani qabul qilish-uzatish qurilmalarini tozalash uskunalari bilan jihozlab g'aramlanayotgan paxta tabiiy holatini saqlash bo'yicha oxirgi yillarda ilmiy izlanishlar olib borilmagan.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertasiya tadqiqoti Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetining ilmiy tadqiqot rejalari asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Rolikli tozalash qurilma bilan jihozlangan paxtani qabul qilish-uzatish uskunasi ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

paxtani qabul qilish-uzatish hamda qattiq jism va iflos aralashmalardan tozalash qurilmalarini yaratishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlillarni olib borish;

paxtani fizik-mexanik, morfologik tarkibini va boshqa tafsiflarini o'rganish;

rolikli tozalash qurilmasining konstruksiyasini ishlab chiqish hamda uning ishchi qismlarini parametr va ish rejimlarini asoslash bo'yicha nazariy va tajribaviy tadqiqotlar o'tkazish;

rolikli tozalash qurilma bilan jihozlangan paxtani qabul qilish-uzatish uskunasining xo'jalik sinovlarini o'tkazish hamda iqdisodiy samarasini aniqlash.

Tadqiqotning ob'ekti Rolikli tozalash qurilma bilan jihozlangan paxtani qabul qilish-uzatish uskunasini olingan.

Tadqiqotning predmeti Rolikli tozalash qurilma bilan jihozlangan paxtani qabul qilish-uzatish rolikli qurilmasining konstruksiyasini takomillashtirish usullari, paxtani qabul qilish-uzatish jarayonining tezlik rejimlarini tanlash usullari hamda parametrlari olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy mexanika, tebranishlar nazariyasi, matematik statistika, ehtimollar nazariyasi, oliy matematika, paxtani dastlabki ishlash texnologiyasi va tajribalarni rejalashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi

paxta xomashyosini qabul qilish-uzatish jarayonida paxta tarkibidagi mayda tosh va passiv iflosliklardan tozalovchi rolikli mexanizmlilik tozalash qurilmasi ishlab chiqilgan va IAP20240048 raqamli patent olingan;

paxta bo'lakchalarini rolikli tozalash qurilma bilan jihozlangan paxtani qabul qilish-uzatish uskunasini qiya transportyordan tushishda ularning OXY koordinatadagi harakat differensial tenglamasini tuzish orqali chegaraviy shartlardan foydalanib qiya transportyorni chiziqli tezligini maqbul qiymatini to'g'ri tanlash bilan rolikli tozalash qurilma bilan jihozlangan paxtani qabul qilish-uzatish uskunasini sirtiga paxta bo'lakchalarini bir tekisda uzluksiz ta'minlashdagi harakati asoslangan;

paxta oqimini uzatishda ishlab chiqilgan dinamik modelga asosan roliklar sirtidagi paxta harakatini ifodalash uchun roliklardagi paydo bo'ladigan kinetik va potensial energiyasidan foydalanib ikkinchi tartibli bir jinsli bo'lmagan differensial tenglamalarni keltirib chiqilgan;

qiya transportyordan tushayotgan paxtani passiv iflosliklardan tozalovchi rolikli tozalash qurilmasining roliklarini ketma-ket vertikal o'q bo'ylab siljish (h) balandliklarini, oraliq (b) masofalarini va aylanishlar sonining ketma-ket o'sib borish (V) tezliklarining maqbul qiymatlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

paxtani qabul qilish jarayonida g'aramga uzatilayotgan paxtani qattiq jism va passiv iflosliklardan tozalashni amalga oshiruvchi rolikli tozalash qurilma bilan jihozlangan paxtani qabul qilish-uzatish uskunasining qiya transporterdan paxta tushish qismiga joylashtirilgan.

yuqori mahsuldorlikni hamda samarali qabul qilishni ta'minlovchi, paxta tarkibidagi qattiq jism va mayda iflosliklarni rolikli tozalash qurilma bilan jihozlangan paxtani qabul qilish-uzatish uskunasini ishchi qismlarining maqbul parametrlari va ish rejimlari asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Nazariy va tajribaviy tadqiqotlar ma'lumotlarining mos kelishi, hisob-kitoblar uchun standart usul va vositalardan foydalanish, shuningdek paxta xom ashyosini rolikli tozalash qurilma bilan jihozlangan paxtani qabul qilish-uzatish uskunasini ishlab chiqarishga joriy etish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati paxta xomashyosini rolikli tozalash qurilma bilan jihozlangan paxtani qabul qilish-uzatish uskunasining konstruktiv va texnologik parametrlarini aniqlash uchun yangi matematik modellar olinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati paxtani qattiq jism va mayda iflosliklardan g'aramlash vaqtida tozalashni amalga oshiruvchi rolikli tozalash qurilma bilan jihozlangan paxtani qabul qilish-uzatish uskunasini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Paxtani qattiq jism va iflosliklardan rolikli tozalash qurilma bilan jihozlangan paxtani qabul qilish-uzatish uskunasini ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida:

paxtani g'aramlash vaqtida rolikli tozalash qurilma bilan jihozlangan paxtani qabul qilish-uzatish uskunasini Surxandaryo viloyatidagi "Muzrabod Indenim" MChJ korxonasi paxta qabul qilish maskanida joriy etilgan ("O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasining 2024-yil 8-oktabrdagi №03/25-2672 sonli ma'lumotnomasi). Natijada rolikli tozalash qurilmasining tozalash samarasi 19,1 foizni, qattiq jismlarni tutish samarasi esa 90,0 foizni tashkil etdi, tajriba uchun saqlangan paxta g'aramlarini korxonada qayta ishlash vaqtida tozalash uskunalari tozalash samarasi I-navli paxtada 85,7 foizni tashkil etib, tozalanmasdan jang'arilgan paxtaga nisbatan 7,9 foizga, IV-navli paxtalarda esa tozalash samarasi 81,8 foizni tashkil etdi va tozalanmasdan jang'arilgan paxtalarga nisbatan 7,7 foizga yuqori bo'lishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta respublika va 4 ta xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarini e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shu jumladan xorijiy jurnallarda 2 ta, respublika jurnallarda 2 maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 100 betni tashkil etgan.


DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsadi va vazifalari, shuningdek, tadqiqot ob'ekti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Paxtani qabul qilish qurilmalari konstruksiyalarini takomillashtirishning analitik tahlili**" deb nomlangan birinchi bobi, paxtani g'aramlarda saqlanishdagi sifat ko'rsatkichlarining o'zgarishi, paxtani qabul qilish jarayonida iflosliklardan tozalash texnika va texnologiyalari, ularning kamchiliklari bo'yicha tahlillar keltirilgan bo'lib, paxta xomashyosini qabul qilish davrida olib kelinayotgan paxta tarkibida passiv iflosliklarning ko'pligi va ularning saqlanish davrida aktiv ifloslikka aylanishi aniqlandi.

Aniqlangan kamchiliklarni kamaytirish uchun paxtani qabul qilish-uzatish qurilmalari XPP, PL larning ish unumdorligiga mos keladigan, paxta tarkibidagi mayda tosh va passiv iflosliklardan dastlabki tozalash uchun rolik mexanizmli uskuna sxemasi

ishlab chiqildi va paxta tarkibidagi iflosliklarni silkitish bilan tozalashni amalga oshirishga ishlaydi 1-rasm.



1-rasm. Taklif etilgan rolikli tozalash qurilma bilan jihozlangan paxtani qabul qilish-uzatish uskunasi

Paxtani qabul qilish uzatish qurilmasida paxta tarkibidagi mayda tosh va iflosliklardan tozalashni amalga oshirish uchun qiya konveyerning boshi ostida roliklar oʻrnatilgan platforma joylashtirilgan boʻlib, ularning oraliq masofasi b mm, roliklar ustiga tushgan paxtalarni tekislash uchun ularning chiziqli tezligi konveyer lentasi tezligidan V yuqori boʻladi va har bir rolikda oʻsib boruvchi boʻladi. Paxta platformada harakatida silkitishni amalga oshirish uchun roliklarni joylashtirishda bosqichma-bosqich h masofa balandlikka oʻzgartirilgan holda oʻrnatiladi.

Qurilma gʻildirak 1, gorizontallentali konveyer 2, paxta bunkeri 3, qiya konveyer 4, roliklardan iborat tozalash mexanizmi 5, chiqindilarni chiqarish shnegi 6 dan iborat va qurilma quyidagi tarkibda ishlaydi: paxta xomashyosi qabul qilish uzatish qurilmasining gorizontallentali konveyeri 2 ga tashlanganidan soʻng, undan qiya konveyer 4 ga uzatiladi, u yerda qoziqli plankalar yordamida paxtani ilib yuqoriga koʻtarib, roliklardan iborat tozalash mexanizmi 5 ga tashlab beradi. Roliklarning qadamma-qadam h masofada joylashuvidan paxta silkitiladi va roliklarning harakati yoʻnalishi boʻyicha aylanish tezligining ketma-ket oshib borishidan paxtada silkitish jarayoni ortadi va paxta uzatilishiga nisbatan uning qatlami kamayadi, shu tufayli orasidagi mayda tosh va iflosliklarning ajralishini yaxshilanishga erishiladi.

Roliklar orasidan toʻkilgan mayda tosh va iflosliklar chiqindi bunkeri 6 ga yigʻilib shnek orqali tashqariga chiqariladi.


Soʻng tozalangan paxta gʻaramga uzatuvchi lentali transporter 7 ga uzatiladi.

Dissertasiyaning **“Rolikli tozalash qurilma bilan jihozlangan paxtani qabul qilish-uzatish uskunasi nazarini tahlili”** nomli ikkinchi bobida paxta tarkibidagi iflosliklarni silkitish bilan tozalashdagi kinematik va rolikli qurilma taʼsirida paxta boʻlakchalarini harakatini dinamik tahlili olib borilgan.

Ish unumdorligi mos keladigan, paxta tarkibidagi mayda tosh va passiv iflosliklardan dastlabki tozalash uchun rolikli qurilmali tozalash uskuna sxemasi ishlab chiqildi va paxta tarkibidagi iflosliklarni silkitish bilan tozalash amalga oshirishni taʼminlaydi va tozalash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tozalash uskunasiga paxta xomashyosi qiya konveyerdan uzatiladi va roliklar yordamida paxta harakatlanadi, shunda roliklarni shunday joylashtirilganki ustidagi

paxtaga silkitish jarayoniga uzatadi. Rolikli tozalash qurilmasiga uzatishda, ya'ni paxta bo'lakchasini roliklarga tushishdagi harakat differensial tenglamalarini aniqlaymiz.



2-rasm. Rolikli mexanizmga tushishdagi paxta bo'lakchalarini harakat sxemasi

Paxta bo'lakchalarini rolikli mexanizmga tushishdagi OXY koordinatadagi harakat differensial tenglamasini tuzamiz.

$$m \cdot \frac{d^2 x}{dt^2} = 0 \quad \text{va} \quad m \cdot \frac{d^2 y}{dt^2} = m \cdot g, \quad (1)$$

(1) differensial tenglamalarni vaqt bo'yicha ikki marta integrallaymiz.

$$\frac{dx}{dt} = c_3 \quad \text{va} \quad \frac{dy}{dt} = g \cdot t + c_4, \quad (2)$$

(2) ifodadan c_3 va c_4 integral doimiylarini boshlang'ich shartdan foydalanib aniqlaymiz.

$(\frac{dx}{dt})_{t=0} = v_0 \cdot \cos \alpha$; $(\frac{dy}{dt})_{t=0} = v_0 \cdot \sin \alpha$ bundan $c_3 = v_0 \cdot \cos \alpha$ va $c_4 = v_0 \cdot \sin \alpha$ ga teng bo'ladi bu qiymatlarni (2) tenglikka qo'yamiz.

$$\frac{dx}{dt} = v_0 \cdot \cos \alpha \quad \text{va} \quad \frac{dy}{dt} = g \cdot t + v_0 \cdot \sin \alpha, \quad (3)$$

(3) tenglikni vaqt bo'yicha yana bir marta differensiallab paxta bo'lakchalarini rolik ustiga tushishdagi oqim xarakatini traektoriya tenglamasini aniqlaymiz.

$$X = v_0 \cdot t \cdot \cos \alpha$$

$$Y = g \cdot \frac{t^2}{2} + v_0 \cdot t \cdot \sin \alpha \quad (4)$$

(4) tenglikni chegaraviy shartlardan foydalanib qiya konveyerni chiziqli tezligini rasional qiymatini to'g'ri tanlash orqali rolikli tozalash qurilmasi sirtiga paxta bo'lakchalarini bir tekisda uzluksiz ta'minlashdagi xarakatini aniqlaymiz. $X_{t=T} = L_1$; $Y_{t=T} = L_2$ shartlarni (4) tenglamalarga qo'yamiz.

$$L_1 = v_0 \cdot T \cdot \cos \alpha$$


$$L_2 = g \cdot \frac{T^2}{2} + v_0 \cdot T \cdot \sin \alpha \quad (5)$$

$\vartheta_r = \omega \cdot R$ ekanligidan foydalanib (5) tenglikni

$$L_1 = \omega \cdot R \cdot T \cdot \cos \alpha$$

$$L_2 = g \cdot \frac{T^2}{2} + \omega \cdot R \cdot T \cdot \sin \alpha \quad (6)$$

(6) tenglikdagi ω -konveyerni burchak tezligi, α - konveyerni qiyalik burchagi, R -konveyerni val radiusi, T –paxta bo‘lakchalarini rolikli mexanizmga tushish vaqti bu tenglilarni Maple dasturidan foydalanib grafiklarda tahlillarini keltiramiz,



$$\omega_1 = 1,8 \text{ pad}/c; \quad \omega_2 = 2 \text{ pad}/c; \quad \omega_3 = 2,2 \text{ pad}/c$$

3-rasm. Paxta bo‘lakchalarini rolikli mexanizmga tushishda konveyer burchak tezligining turli xil qiymatlarida vaqtga bog‘liqlik grafigi


3-grafikdan rolikli mexanizm sirtiga tushishda gorizontaal va vertikal tushishdagi harakatini konveyerni burchak tezligiga bog‘liqlik grafigida yetarlicha burchak tezlikka ega bo‘lgan konveyer ta’sirida roliklar ustiga uzluksiz uzatishni ta’minlash keltirilgan. Paxta bo‘lakchalarini qiya konveyerdan rolikli mexanizmga tushishda OX va OY o‘qlari bo‘yicha ma’lum masofalarni bosib o‘tadi bunda bizga yetarli bo‘ladigan masofalarni bosib o‘tishda ya’ni rolikli mexanizmlar ustiga tushishda konveyerni burchak tezligini to‘g‘ri baholasak L_1 masofadan kam masofalarga paxta bo‘lakchalari tushmaydi L_2 masofadagi qiymatiga bog‘liqlik tenglamasidan esa paxta oqimini uzluksiz ta’minlashda qiyalik burchagini ahamiyati muhim ekanligidan konveyer burchak tezligini $\omega_3 = 2,2 \text{ pad}/c$ qiymatida paxta bo‘lakchalari rolikli mexanizmga kelib tushishini ko‘rishimiz mumkin.

Qiya elevatordan rolikli mexanizmga tushayotgan paxta bo‘lakchalaridan mayda tosh va iflosliklardan tozalashda rolik ustida bir tekis qatlam ko‘rinishida yoyilishini ta’minlashda har bir rolikli mexanizmning chiziqli tezliklarini oshib borishini ta’minlash, ya’ni $\vartheta_1 < \vartheta_2 < \vartheta_3 < \vartheta_4 < \vartheta_5 < \vartheta_6 < \vartheta_7$ qonuniyat bo‘yicha, hamda roliklar orasidagi masofasi b ni, roliklarni gorizontaal o‘qqa nisbatan masofalari h ni to‘g‘ri tanlash natijasida paxta oqimini cho‘zish gorizontaal o‘qqa nisbatan joylashishiga qarab titrashini hisobga olgan holda mayda va yirik iflosliklardan tozalash samaradorligiga erishish masalasini dinamik yondashish orqali aniqlaymiz (4-rasm).

Paxta oqimini uzatishda har bir rolikning aylanishdagi dinamikasini Lagranjning ikkinchi tur tenglamasidan foydalanamiz.

$$\frac{d}{dt} \left(\frac{dT}{d\dot{\varphi}_i} \right) - \frac{dT}{d\varphi_i} + \frac{d\Pi}{d\varphi_i} = Q(\varphi_i), \quad (7)$$

bu yerda φ_i va $\dot{\varphi}_i$ umumlashgan koordinatalar va umumlashgan tezliklari (roliklarni), T, Π – kinetik va potensial energiyalari, $Q(\varphi_i)$ – umumlashgan kuchlar, $l_{21}, l_{32}, l_{43}, l_{54}, l_{65}, l_{76}$ – mos ravishda roliklar orasidagi uzatishlar nisbati.



4-rasm. Roliklar ketma-ketligining dinamik modeli

Paxta oqimini uzatishda roliklardagi kinetik energiyalarini aniqlaymiz.

$$T_1 = \frac{1}{2} \cdot J_1 \cdot \dot{\varphi}_1^2; T_2 = \frac{1}{2} \cdot J_2 \cdot \dot{\varphi}_2^2; T_3 = \frac{1}{2} \cdot J_3 \cdot \dot{\varphi}_3^2; T_4 = \frac{1}{2} \cdot J_4 \cdot \dot{\varphi}_4^2$$

$$T_5 = \frac{1}{2} \cdot J_5 \cdot \dot{\varphi}_5^2; T_6 = \frac{1}{2} \cdot J_6 \cdot \dot{\varphi}_6^2; T_7 = \frac{1}{2} \cdot J_7 \cdot \dot{\varphi}_7^2. \quad (8)$$

Roliklarning ketma ketlikda joylashish sistemasidagi hosil bo‘ladigan potensial energiyasi nolga teng bo‘ladi.

$$\Pi = \frac{1}{2} \cdot c_i \cdot \varphi_i^2 = 0. \quad (9)$$

U holda paxta oqimini uzatishda (5-rasm)dagi dinamik modeliga asosan bir tekis uzatishda roliklar sirtidagi harakatining differensial tenglamasini tuzamiz.

Roliklarning burovchi momentlari orasida quyidagi munosabat o‘rinli bo‘ladi, $M_1 < M_2 < M_3 < M_4 < M_5 < M_6 < M_7$ bu holda paxta oqimining cho‘zilishini ta‘minlash va iflosliklardan ajratish jarayonini samaradorligini oshirish masalasi ko‘rilgan.

Differensial tenglamalarning sonli yechimlardan foydalanib rolikli mexanizmini tezliklari ortib borish jarayonidagi paxta oqimining uzatishdagi tenglamalar sistemasini aniqlaymiz.

Har bir rolikli mexanizm sirtidan paxta oqimini uzatishda ajralib chiqadigan mayda tosh va iflosliklarning hisobiga massalarni o‘zgarishi tahlili keltirilgan.


$$\frac{m_1 \cdot r^2}{2} \cdot \ddot{\varphi}_1^2 - M_1 \cdot \ddot{\varphi}_1 + M_2 \cdot \ddot{\varphi}_2 = 0$$

$$\frac{m_2 \cdot r^2}{2} \cdot \ddot{\varphi}_2^2 - M_2 \cdot \ddot{\varphi}_2 + M_3 \cdot \ddot{\varphi}_3 = 0$$


$$\frac{m_3 \cdot r^2}{2} \cdot \ddot{\varphi}_3^2 - M_3 \cdot \ddot{\varphi}_3 + M_4 \cdot \ddot{\varphi}_4 = 0$$

$$\begin{aligned} \frac{m_4 \cdot r^2}{2} \cdot \ddot{\varphi}_4^2 - M_4 \cdot \ddot{\varphi}_4 + M_5 \cdot \ddot{\varphi}_5 &= 0 \\ \frac{m_5 \cdot r^2}{2} \cdot \ddot{\varphi}_5^2 - M_5 \cdot \ddot{\varphi}_5 + M_6 \cdot \ddot{\varphi}_6 &= 0 \\ \frac{m_6 \cdot r^2}{2} \cdot \ddot{\varphi}_6^2 - M_6 \cdot \ddot{\varphi}_6 + M_7 \cdot \ddot{\varphi}_7 &= 0 \\ \frac{m_7 \cdot r^2}{2} \cdot \ddot{\varphi}_7 - M_7 &= 0 \end{aligned} \quad (10)$$

(10) tenglikdan mayda tosh va iflosliklarni ajratishdagi paxta oqimidan massasi o‘zgarishi bo‘yicha grafiklarda tahlili keltirilgan.



a)



b)

a) $h_2=20mm$, b) $L_2=10mm$


5-rasm. Paxta oqimining rolikli mexanizm sirtidagi harakatini roliklarni gorizontol o‘qiga nisbatan surilish masofalarini va roliklar oraliq masofalarini tezlikka bog‘liqlik grafigi

Yuqoridagi 5-rasmlar tahlilidan paxta oqimidan mayda tosh va iflosliklarni ajratishda rolikli mexanizmlarning oraliq masofalari burchak tezliklari hamda gorizontol o‘qqa nisbatan joylashishi tozalash samaradorligiga ta’sirini grafiklar orqali ko‘rsatilgan, bunda rolikli mexanizmlar tezliklarini ortib borishi va roliklarni joylashishiga qarab paxta oqimini bir tekisda cho‘zish va titrashi natijasida iflosliklarni ajratishda roliklar oraliq masofasini $L_2=10mm$ qiymatida, roliklarni ketma-ket joylashishini gorizontol o‘qqa nisbatan surilish masofasini $h_2=20mm$ qiymatida va roliklar tezliklarini ketma-ket oshib borishidagi paxta oqimining bir tekis cho‘zilishini hamda titrashini oshib borishini ko‘rishimiz mumkin, bu esa o‘z navbatida tozalash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Dissertasiyaning “Paxtani g‘aramlashda passiv iflosliklardan tozalash uskunasi amaliy tahlillari” deb nomlangan uchinchi bobida tozalagich roliklarining diametrini paxta harakatiga ta’sirini o‘rganish, roliklar aylanishlar sonini ketma-ket oshirib borish bilan paxta qatlamini hosil qilish asosida roliklar sonini aniqlash, roliklar oraliq masofasini va ularni ketma-ket joylashtirishda vertikal o‘qiga nisbatan surilish masofasi tozalash samarasiga va chiqindida paxta bo‘laklari miqdoriga ta’sirini o‘rganish va asosiy parametrlarini asoslash bo‘yicha maxsus ishlab chiqilgan usullar hamda amaliy tadqiqotlar natijalari bayon etilgan.

Roliklar diametrining o‘zgarishidan paxtaning roliklar yuzasida harakati davomida roliklar oraliq bo‘shlig‘iga tushib, undan chiqib ketishi uchun yuqoridan katta bosim talab etiladi, bizning holatimizda paxtani mayda iflosliklardan tozalashni va orasidagi mayda toshlarni ajratishni amalga oshirish uchun roliklar ustidagi paxta qatlami qalinligini kichiklashtirish kerak bo‘ladi, shuning uchun roliklar diametrini aniqlash muhim hisoblanadi.

Tajribalar uchun 76, 88 va 100 mm diametrli roliklar tayyorlandi va birma bir stendga o‘rnatib ishlatildi, stendga 12 ta roliklarni joylashtirildi. Tajribalarni o‘tkazishda Buxoro-102 seleksiya navli I-sanoat navli dastlabki iflosligi 6,6 foizli, namligi 8,8 foizli paxtalardan har bir tajriba uchun stendning oldi qismiga uyulgan holda 25 kg dan solindi. Tajriba natijalari quyidagi 6-rasmda keltirilgan.



6-rasm. Roliklar diametrini uskuna ko‘rsatkichlariga ta’siri

Yuqoridagi tajribalardan ko‘rinadiki roliklar diametri 76 mm da paxtaning platformadan chiqish vaqti 5,2 sek.ni tashkil etdi, to‘p holatidagi paxta platformaning 8 chi rolikga kelganda platforma ustida to‘shama sifatida yoyilib tekislandi. Roliklar diametri 88 mm da paxtaning chiqish vaqti 5,0 sek.ni tashkil etib, paxta 7 chi rolikdan to‘shamasini yoyila boshlandi. Roliklarning diametrini kattalashtirib, 100 mm da paxtani platformadan chiqish vaqti 5,4 sek.ni tashkil etib, 10 chi rolikdan paxta to‘shama sifatida yoyila boshlandi. Roliklarning diametrini kattalashtirish mashinaning ish unumdorligini pasaytirishi mumkin ekan.


Roliklarning aylanishlar sonini paxta harakati yo‘nalishi bo‘yicha oshib borishi bilan paxta qatlamaning tekislanishi yuzaga keladi, lekin shuni aytish kerakki tekislanish

masofasi qancha qisqa bo'lsa roliklar sonini kamaytirishga va uskunani ixchamlashtirishga erishiladi.

Roliklar aylanishlar sonini ketma-ket oshirib borishning platformada paxta qatlamining qalinligiga ta'sirini o'rganilganda roliklarning aylanishlar sonini ketma-ket oshib borishining 6 ayl/min da natijalar qoniqarli bo'lganligi uchun tajribalarni ushbu tezlikda o'tkazildi.

Tajribalarda iflosligi 8,6 foiz li, namligi 7,8 foiz li, II-sanoat navli paxtadan har bir tajriba qaytarishlari uchun 25 kgdan olindi va platforma ustiga to'kilib, bir tomonga to'plandi.

Platformaning uzunligi asosan undagi roliklar soniga bog'liq bo'ladi, shuning uchun roliklar sonini tozalash samarasiga ta'sirini tahlil qilamiz (7-rasm). Tajribalarni o'tkazishdan avval roliklar sonini platformada 18 tagacha o'rnatildi va har ikki rolik tagiga quti qo'yib, chiqindilari alohida ajratib olindi va aniqlandiki 12 ta roliklardan so'ng paxta tarkibidagi passiv iflosliklarning tushishi juda kamayib, keyingi roliklar samarasiz ishlaganligi uchun tajriba natijalarini 12 ta roliklarda tugatildi.



7-rasm. Platformada roliklar sonini tozalash samarasiga ta'sirini paxtaning har xil iflosligida aniqlash. (5,2foiz; 8,8foiz; 10,5foiz)


7-rasmda keltirilgan tajriba natijalaridan ma'lumki platformadagi roliklar sonining ortishi tozalash samarasining ortishiga olib keladi, bunda paxtaning iflosligi 5,2 foiz da roliklar soni 8 ta bo'lganidan tozalash samarasi 12,5 foiz ni tashkil etdi, roliklar sonining 10 donasida tozalash samarasi 15,8 foiz ni tashkil etib, roliklar sonini 12 ta o'rnatilganidan tozalash samarasi 0,4 foiz ga oshganini ko'ramiz.

Qolgan tajribalarda paxta iflosliklarining 8,8 foiz va 10,5 foiz da roliklar sonining 8 tadan 12 tagacha o'rnatilganida ham roliklar sonini tozalash samarasining yuqori bo'lishiga ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Lekin roliklar sonining ko'payishi paxtaning platformadan o'tish vaqtini ortib ketishiga sabab bo'lib, mashinaning umumiy ish

unumdorligini pasayishiga olib keladi. Shuning uchun tajribalarni davom ettirib, roliklar sonini ortishidan platformadan paxtani chiqib ketish vaqtining o‘shishi hisobidan mashinaning ish unumdorligini pasayishiga olib keladi va roliklar sonini ish unumdorligiga ta’sirini o‘rganamiz. Bunda roliklarning aylanishlar sonini o‘shirishni oldingi tajribalar singari qoldiriladi. Yuqorida tajribalar uchun tayyorlangan paxta namunalaridan iflosligi 8,8 foizli 23 kg paxta olindi. Tajriba natijalari quyidagi 8-rasmda keltirilgan.

Tajriba natijalaridan ma’lum bo‘ldiki platformadagi roliklar soni 8 donasida paxta namunasi platformadan 4,1 sekunda chiqib ketdi, mashinaning ish unumdorligi hisoblanganda soatiga 20 tonnani tashkil etdi, roliklar sonini 10 donasida 4,6 sekunda chiqib, ish unumdorlik 18 t/soatni, roliklar soni 12 donada esa 4,8 sekunda chiqib, ish unumdorlik 17 t/soatni tashkil etdi.

Yuqoridagi tajriba natijalaridan ko‘rinadiki roliklar sonini ko‘pligi ish unumdorlikni tushirib yuborsa, aksincha tozalash samaradorlikni oshirmoqda, shuning uchun 7-grafikdagi tajribalarda roliklar sonining 12 donaga etganida ish unumdorlikni bor yo‘g‘i 1 t/soatgagina kamaytirganligi bu juda katta yo‘qotish emasligini hisobga olib, tozalash samaradorligi 12 dona rolikda ko‘proq. Lekin, roliklar sonini ko‘paytiraverish, roliklar oxirida ishlar samarasi pastligi, ya’ni oxirgi roliklarda to‘kilayotgan iflosliklar sezilarsizligi kuzatildi va 12 ta roliklardan so‘ng oshirish maqsadga muvofiq emas degan xulosa qilindi.



8-rasm. Roliklar sonining ish unumdorlikka ta’siri

Tozalash tizimli paxtani qabul qilish uzatish qurilmasining maqbul parametrlarini matematik rejalashtirish usuli orqali aniqlandi, bunda g‘aramga uzatilayotgan paxtaning sifatini baholash kriteriyasi sifatida rolikli qurilmaning tozalash samarasini Y_1 olindi. Olingan kriteriyaga ta’sir etuvchi omil sifatida: X_1 – roliklarning aylanishlar sonini ketma-ket oshirib borishi, ayl/min , X_2 – roliklarning oraliq masofasi, mm, X_3 – roliklarni ketma-ket joylashtirishda vertikal o‘qi bo‘ylab siljish masofasi, mm qabul qilindi.

Tajribalarni o‘tkazishda korxonadagi Buxoro-102 seleksiya navli, I-sanoat navli, dastlabki iflosligi 5,8 foiz, namligi 8,6 foiz li paxtada o‘tkazildi.

Rolikli qurilmaning tozalash samarasi bo‘yicha regressiya tenglamasi olindi:

$$Y_1 = 19,048 - 0,470X_1 + 0,380X_2 + 0,380X_3 - 1,048X_1^2 - 0,238X_1X_2 - 0,698X_2^2 - 0,665X_3^2 \quad (11)$$

Matematik modelni (11) adekvatligini tekshirish shuni ko‘rsatdiki: adekvatlik dispersiyasi = 8.3416 ga teng, Fisher kriteriyasining hisobiy ko‘rsatkichi = 1.847178 ga teng, Fisher kriteriyasining jadval ko‘rsatkichi $FT(6, 28) = 2.44$ ga teng bo‘lib model adekvatligini ko‘rsatdi.

Hosil bo‘lgan optimizasiya masalasi tasodifiy qidiruv usuli va zamonaviy kompyuter amaliy programmalar dasturlari yordamida yechildi va quyidagi optimal yechimlar olindi: X_1 – roliklarning aylanishlar sonini ketma-ket oshib borishi, 4 ayl/min. dan, X_2 – roliklarning oraliq masofasi, 11 mm, X_3 – roliklarni ketma-ket joylashtirishda vertikal o‘qi bo‘ylab siljish masofasi, 23 mm qabul qilindi.

“Rolikli tozalash qurilma bilan jihozlangan paxtani qabul qilish-uzatish uskunasi sinovlari va iqtisodiy samarasi” deb nomlangan to‘rtinchi bobida ishlab chiqarish sinov natijalari keltirilgan.

Ishlab chiqarishda sinovlarni o‘tkazish uchun Surxandaryo viloyati “Muzrabot Indenim klaster” MChJ korxonasi tayyorlov maskaniga tayyorlangan tozalash moslamasini olib borilib, u erdagi PL transporteriga o‘rnatish ishlari olib borildi (8-rasm).

Tajriba sinov ishlarida paxtani jamg‘arish davrida paxta orasidagi mayda toshlarni tutishini va tozalash samarasini aniqlash ishlari olib borildi (1-jadval).

Buning uchun rangga bo‘yalgan 100 dona toshlarni PL qurilmasiga tirkamadan 1550 kg paxtani to‘kilish vaqtida tashlab turildi. Tirkamadan transporteriga to‘kilayotgan paxta ko‘rsatkichlari: seleksiya navi Buxoro 102, sanoat navi -II, sinfi 2. Dastlabki iflosligi 8,7 foiz ni, namligi 9,5 foiz ni tashkil etdi.

1-jadval


G‘aramlashda paxtani tozalash qurilmasining tozalash samarasini aniqlash

Dastlabki paxta miqdori, kg	Dastlabki ifloslik, foiz	Tozalangandan so‘ng ifloslik, foiz	Tozalash samarasi, foiz	Tosh tutish samarasi, foiz
1550	8,7	7,0	19,5	92
1600	8,8	7,1	19,3	88
1500	8,6	7,0	18,6	90
o‘rtacha			19,1	90,0



9-rasm. PL transporteriga tozalash moslamasini o‘rnatish jarayoni

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinadiki, uskunaning tozalash samarasi o‘rtacha 19,1 foizni tashkil etsa, mayda toshlarni tutish samarasi 90,0 foizni tashkil etmoqda, bu esa paxtani g‘aramda sifatli saqlanishini amalga oshirishga erishiladi.



10-rasm. Amaldagi va g‘aramga paxtani jamg‘arishda uni tozalash texnologik qurilmasidan keyingi paxta xomashyosini ishlab chiqarishdagi tozalash samarasini o‘zgarishi

Paxtani tozalab g‘aramlashning saqlash vaqtida sifatini aniqlash va ishlab chiqarishda paxtadan olinadigan mahsulotlar sifatiga ta’siri o‘rganildi, buni 10-rasmdagi amaldagi va tavsiya etilgan paxtani g‘aramga jamg‘arish texnologik qurilmasida jamg‘arilgan paxtalarni ishlab chiqarishning tozalash bosqichi bo‘yicha tozalash samaradorliklarini o‘zgarishi gistogramma ko‘rinishida berilgan.

10-rasmdagi gistogrammadan ko‘ramizki, amaldagi jamg‘arish texnologiyasida jamg‘arilgan paxtani ishlab chiqarish jarayonida I navli paxtalarda tozalash samaradorligi 77,8 foiz ni tashkil etsa, IV navli paxtalarda 74,07 foiz ni tashkil etmoqda.

Tajriba natijalarini tahlilidan, I nav, 2-sinf va IV nav, 2-sinfga mansub paxta xomashyolarini amaldagi jamg‘arish texnologik qurilmasi va g‘aramlashda paxtani tozalash qurilmali tavsiya etilgan konstruksiyadagi qabul qilish qurilmasida tozalab jamg‘arilgan paxtani qayta ishlangandagi natijalarni solishtirganimizda amaldagi texnologiya bilan jamg‘arilgan paxtaning ishlab chiqarishdagi umumiy tozalash samaradorligi I nav 2-sinfda 77,8 foiz ni IV nav 2-sinf paxtani qayta ishlanganda 74,07 foizni tashkil etmoqda. Toladagi nuqsonlar va iflos aralashmalar esa 2,3 foiz va 6,4 foiz ni, ya’ni I nav yaxshi sinfga va IV nav o‘rta sinfga mansub tola olinayotgan bo‘lsa, tavsiya etilayotgan texnologik qurilmada jamg‘arilgan paxtani ishlab chiqarishdagi jarayonning tozalash samaradorligi I nav 2-sinfda 85,7 foizni IV nav 2-sinfda 81,8 foizni tashkil etdi, ishlab chiqarilgan tolaning nuqsonlar va iflos aralashmalar miqdori 2,0 foiz va 6,0 foiz ni tashkil etdi, bu esa I nav oliy va IV nav yaxshi sinfga ko‘tarilgani amaldagi tolaga nisbatan sifatini 0,3-0,4 foiz ga yaxshilanganligi ko‘rinmoqda.

Taklif etilgan paxtani g‘aramlashda tozalash texnologiyada tozalangan paxta xomashyosidan olinadigan tola sifatining yaxshilanishidan 4 dona g‘aramda aniqlangan iqtisodiy samara 77 241 ming so‘mni tashkil etadi va havo so‘rg‘ichlarni ishlatishda iqtisod qilingan elektr energiya sarfini hisobga olinganda, jami 88 857 ming so‘mlik iqtisodiy samara olishga erishildi.

UMUMIY XULOSALAR

1. Paxtani g‘aramlashdan oldin iflosliklardan dastlabki tozalashni amalga oshirilishi paxtani uzoq vaqt saqlashda sifat ko‘rsatkichlarining buzilishini oldi olinadi, chunki iflosliklar tarkibidagi namliklar paxta tolasiga yopishib, tolaning namligini oshishga olib kelib, o‘z-o‘zidan qizishi mumkin, mayda iflosliklar esa zichlangan paxtada vaqt o‘tishi bilan tola ichiga chuqurroq kirishi mumkin va keyingi bosqich tozalash jarayonini qiyinlashtirib tola mahsulotining sifatiga ta’sir etishi mumkin.

2. Paxtani qabul qilish jarayonidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun paxtani qabul qilish-uzatish qurilmalari XPP, PL larning ish unumdorligiga mos keladigan, paxta tarkibidagi mayda tosh va passiv iflosliklardan dastlabki tozalash uchun rolik mexanizimli uskuna sxemasi taklif etildi.

3. Paxta bo‘lakchalarini OX va OY o‘qi bo‘yicha traektoriyalarida paxta bo‘lakchalarini konveyerdan roliklarga uzatishda konveyer burchak tezligini to‘g‘ri tanlash orqali bir tekisda uzluksiz ta’minlashda $\omega_3 = 2,2 \text{ rad/c}$ qiymatida roliklarga bir tekis uzatishni ta’minlaydi.

4. Paxta bo‘lakchalarini qiya konveyerdan rolikli mexanizmga tushishda OX va OY o‘qlari bo‘yicha ma’lum masofalarni bosib o‘tadi bunda bizga etarli bo‘ladigan masofalarni bosib o‘tishda, ya’ni rolikli mexanizmlar ustiga tushishda konveyerni burchak tezligini to‘g‘ri baholasak L_1 masofadan kam masofalarga paxta bo‘lakchalari tushmaydi L_2 masofadagi qiymatiga bog‘liqlik tenglamasidan esa paxta oqimini uzluksiz

ta'minlashda qiyalik burchagini ahamiyati muhim ekanligidan konveyer burchak tezligini $\omega_3 = 2,2 \text{ rad/c}$ qiymatida paxta bo'lakchalari rolikli mexanizmga kelib tushishini ko'rishimiz mumkin.

5. Paxta oqimidan mayda tosh va iflosliklarni ajratishda rolikli mexanizmlarning oraliq masofalari burchak tezliklari hamda gorizontaal o'qqa nisbatan joylashishi tozalash samaradorligiga ta'sirini grafiklar orqali ko'rsatilgan bunda rolikli mexanizmlar tezliklarini ortib borishi va roliklarni joylashishiga qarab paxta oqimini bir tekisda cho'zish va titrashi natijasida iflosliklarni ajratishda roliklar oraliq masofasini $L_2 = 10 \text{ mm}$ qiymatida, roliklarni ketma-ket joylashishini gorizontaal o'qqa nisbatan surilish masofasini $h_2 = 20 \text{ mm}$ qiymatida va roliklar tezliklarini ketma-ket oshib borishidagi paxta oqimining bir tekis cho'zilishini hamda titrashini oshib borishini ko'rishimiz mumkin, bu esa o'z navbatida tozalash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

6. Tajriba natijalaridan ko'rinadiki, roliklar sonini ko'pligi ish unumdorlikni tushirib yuborsa, aksincha tozalash samaradorlikni oshirmoqda, shuning uchun roliklar sonining 12 donaga yetganida ish unumdorlikni bor yo'g'i 1 t/soatgagina kamayganligi bu juda katta yo'qotish emasligini hisobga olib, tozalash samaradorligi 12 dona rolikda ko'proq. Lekin, roliklar sonini ko'paytiraverish, roliklar oxirida ishlar samarasi pastligi, ya'ni oxirgi roliklarda to'kilayotgan iflosliklar sezilarsizligi kuzatildi va 12 ta rolikdan so'ng oshirish maqsadga muvofiq emas degan xulosa qilindi.

7. Ko'p omilli tajriba natijalarini qayta ishlash davomida o'tkazilgan tajribalar natijasi bo'yicha X_1 – roliklarning aylanishlar sonini ketma-ket oshib borishi, 4 ayl/min. dan, X_2 – roliklarning oraliq masofasi, 11 mm, X_3 – roliklarni ketma-ket joylashtirishda vertikal o'qi bo'ylab siljish masofasi, 23 mm qabul qilindi.

8. Ishlab chiqarish sinovlaridan ko'rinadiki, paxtani g'aramlash vaqtida iflosliklardan tozalash uskunaning tozalash samarasi o'rtacha 19,1 foiz ni tashkil etdi, mayda toshlarni tutish samarasi esa 90,0 foizni tashkil etdi, tajriba uchun saqlangan paxta g'aramlarini korxonada qayta ishlash vaqtida tozalash uskunalarining tozalash samarasi I navli paxtada 85,7 foiz ni tashkil etib, tozalanmasdan jamg'arilgan paxtaga nisbatan 7,9 foiz ga, IV navli paxtalarda esa tozalash samarasi 81,8 foiz ni tashkil etsa, tozalanmasdan jamg'arilgan paxtalarga nisbatan 7,7 foizga yuqori ekanligi aniqlandi.

9. Taklif etilgan paxtani g'aramlashda tozalash texnologiyada tozalangan paxta xomashyosidan olinadigan tola sifatining yaxshilanishidan 4 dona g'aramda aniqlangan iqtisodiy samara 77241 ming so'mni tashkil etadi va havo so'rg'ichlarni ishlatishda iqtisod qilingan elektr energiya sarfini qo'shilsa jami 88857 ming so'mlik iqtisodiy samara olishga erishildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/28.08.2024.Т. 181.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТЕРМЕЗСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ИНЖЕНЕРИИ И АГРОТЕХНОЛОГИЙ**

**ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИНЖЕНЕРИИ И
АГРОТЕХНОЛОГИЙ**

АБДУЛЛАЕВ КАМОЛИДДИН ЮСУПОВИЧ

**РАЗРАБОТКА УСТРОЙСТВА СКЛАДИРОВАНИЯ ХЛОПКА-СЫРЦА
С ОЧИСТИТЕЛЬНО-КАМНЕУЛОВИТЕЛЬНОЙ СЕКЦИЕЙ ДЛЯ
УЛУЧШЕНИЯ КАЧЕСТВЕННЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ХЛОПКА ПРИ
ЕГО ХРАНЕНИИ**

**05.02.03- «Технологические машины. Роботы. Мехатроника и системы
робототехника»**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Термез-2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2024.1. PhD /Т4435

Диссертация выполнена в Термезском государственном университете инженерии и агротехнологий.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте Ученого совета при Термезском государственном университете инженерии и агротехнологий (<https://tdmau.uz/>) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Джамолов Рустам Камолидинович**
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Урозов Мустафокул Култураевич**
доктор технических наук, доцент

Абдугаффаров Хусниддин Журабекович
доктор философии по техническим наукам,
доцент

Ведущая организация: **Джизакский политехнический институт**

Защита диссертации состоится 27 февраля 2025 года в 14-00 часов на заседании Научного совета PhD. 03/28.08.2024.т. 181.02 при Термезском государственном университете инженерии и агротехнологий (Адрес: 200117, г. Термез, ул. И.Каримова, 288-А Тел.: (+99876) 221-87-20; e-mail (<https://tdmau.uz/>) (Термезский государственный университет инженерии и агротехнологий)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Термезского государственного университета инженерии и агротехнологий (зарегистрирован за №1). Адрес: 190100, г. Термез, ул. И.Каримова, 288-А Тел.: (+99876) 221-87-20; e-mail (<https://tdmau.uz/>)

Автореферат диссертации разослан 13-февраля 2025 г.
(реестр протокола рассылки № 136 от «12» февраль 2025 г.).

Ф. У. Каршиев

Председатель научного совета по присуждению
ученых степеней, доктор технических наук, доцент

О. Ш. Очилдиев

Ученый секретарь научного совета по присуждению
ученых степеней, доктор философии по техническим наукам

М. К. Урозов

Председатель научного семинара при научном совете по
присуждению ученых степеней, доктор философии по техническим наукам, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой текстильной промышленности хлопковое волокно составляет 55-60% от общего количества используемого волокна. Согласно данным мировой статистики, а также Международного консультативного комитета по хлопку (ICAC), «В сезоне 2020-2021 в пятерку стран-экспортеров хлопкового волокна входят США, Бразилия, Китай, Бангладеш и Вьетнам». Однако, в последние годы объёмы экспорта хлопкового волокна сократились, и большинство стран-производителей хлопка внедряют практику самостоятельной переработки хлопкового волокна. Такая ситуация требует усиления конкуренции на мировом рынке повышения качества продукции. В связи с этим важно оснащение хлопкоочистительных предприятий современными высокоэффективными оборудованими и технологиями.

В мировой практике проводятся комплексные теоретико-экспериментальные научные исследования по все более широкому использованию современной техники и технологий, по созданию нового поколения технологических машин и механизмов переработки загрязненной части хлопка-сырца в больших объемах, особенно при их сборе, по созданию научных основ расчета параметров, нагрузки, режимов работы их основных рабочих органов. В этой области перспективным направлением является повышение качества хлопка-сырца перед его хранением на бунтах и складах и надежности оборудования приемки и подачи на основе инновационных технологий. В связи с этим перед складированием необходимо удалить часть посторонних примесей из хлопка-сырца, тем самым снизив его влажность, и оборудовать устройства приемки дополнительным очистительным оборудованием для повышения эффективности очистки хлопка-сырца от мелких сорных примесей и тем самым особое внимание уделяется развитию новых разработок.

В Республике принимаются комплексные меры по развитию хлопковой отрасли, переоборудованию и модернизации хлопкоочистительных предприятий, повышению рентабельности производства и переработки хлопка-сырца и достигаются определенные результаты. Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПП-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», в том числе поставлена задача «...обеспечение стабильности национальной экономики и продолжение промышленной политики в области новой отечественной продукции, направленной на увеличение объема производства промышленной продукции в 1,4 раза, тем самым увеличив объем производства продукции текстильной промышленности в 2 раза...»¹. При реализации этих задач для сохранения показателей качества волокна при частичной очистке хлопка-сырца важно совершенствовать оборудование приемки и подачи за счет ресурсосберегающих научно-технических решений.

Постановление Президента Республики Узбекистан, от 07.07.2022 года № ПП-308 «О дополнительных организационных мерах по повышению урожайности

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПП-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы».

